

ZAMONAVIY ADABIYOT O'QITUVCHISINING KASBIY IMIJI

Sh. Tursunaliyeva

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi ,

Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Andijon davlat pedagogika instituti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy adabiyot o'qituvchisining shaxsiy va kasbiy fazilatlari, uning boshqa fan o'qituvchilaridan farqli jihatlarini, shuningdek, adabiy va ma'naviy tarbiyada tutgan o'rni tahlil qilingan. Qozoqboy Yo'ldoshev, Qumduzxon Husanova, Asqar Zunnunov kabi mutaxassislarning fikrlari asosida adabiyot o'qituvchisining imiji, ma'naviy dunyosi va ijodiy yondashu

Kalit so'zlar: adabiyot o'qituvchisi, shaxsiy fazilat, ijodkorlik, tarbiya, o'quvchi bilan muloqot

Annotation: This article explores the professional and personal image of the modern literature teacher, focusing on their creative and educational roles. It highlights how literature teachers differ from teachers of other disciplines and discusses their contribution to moral and aesthetic development. Opinions of scholars such as Qozoqboy Yo'ldoshev, Qumduzxon Husanova, and Asqar Zunnunov are included to deepen the analysis.

Keywords: literature teacher, creativity, personality traits, moral education, student interaction, personal as well as professional skills.

Аннотация: В данной статье рассматриваются личные и профессиональные качества современного учителя литературы, его отличительные особенности по сравнению с преподавателями других дисциплин, а также роль в нравственном и духовном воспитании. На основе взглядов Козокбая Йулдошева, Кумдузхон Хусановой и Аскара Зуннунова раскрывается образ учителя-литератора как личности и творческой фигуры.

Ключевые слова: учитель литературы, творчество, личностные качества, воспитание, взаимодействие, личные и профессиональные навыки.

Zamonaviy ta'lim jarayonida adabiyot fani o'qituvchining ruhiy, estetik va axloqiy dunyosini boyitish muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonning bosh boshqaruvchisi esa adabiyot o'qituvchisidir. U nafaqat bilim beruvchi, balki qalblarni uyg'otuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy o'qituvchi – ijodkor, tahlilchi va tarbiyachi shaxs. Adabiyot o'qituvchi esa bu fazilatlar har birini o'zida uyg'unlashtira olgan noyob pedagogdir. U obrazlar orqali dunyoni tahlil qilish, o'qituvchining qalbini sezish va uni badiiy-estetik mezonlar asosida tarbiyalash imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, adabiyot o'qituvchisi o'qituvchilarga faqat adabiy bilimlarni o'rgatibgina cheklanmay, hayotiy ko'nikmalarga ham yo'naltirishi, o'qituvchining samarali kommunikatsiya ko'nikmalari: tilni tushunish, o'qituvchilar bilan muloqot o'rnatish, motivatsiya berish, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullarni o'qitish jarayonida qo'llash pedagogning innovatsion yondashuvlari va o'qituvchi va o'qituvchi o'rtasida ishonchli munosabatlar o'rnatish talab qilinadi¹. Adabiyot o'qituvchisi bir necha farqli jihatlari bilan boshqa fan o'qituvchilaridan ajralib turadi. Adabiyot o'qituvchisi o'qituvchilarda estetik did, badiiy tafakkur, tuyg'u va hissiyotlarni rivojlantirish, axloqiy-odobiy, ma'naviy qadriyatlar orqali o'qituvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, darslarda o'qituvchilarni mustaqil fikrlash, o'z munosabatini bayon etish, tahlil qilish va hatto ijodiy ishlar (she'r, insho, hikoya) yozish, til va nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi bilan boshqa fan mutaxassislaridan farqlanadi.² Shuni ta'kidlash joizki, adabiyot o'qituvchisi boshqa soha vakillaridan his-tuyg'u va emotsional xususiyatga boy va tafakkur olami jihatidan biroz ustunroq bo'lishi ko'zga tashlanadi. Masalan, boshlangich sinf o'qituvchisi o'ziga xos bolalarcha d³unyoqarashga molik bo'lib qoladi kasbi yuzasidan kelib chiqqan holda yoki

¹ Husanova, Q. (2020). Adabiyot o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi. Toshkent: O'qituvchi.)

Husanova Q. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi: muammo va yechimlar. // Pedagogik ta'lim jurnali. – 2021. – №2. – B. 45–51.

² Husanova, Q. (2021). Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi: muammo va yechimlar. Pedagogik ta'lim, 2, 45–51.)

Zunnunov A. O'qituvchining ichki dunyosi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017

³ O'qituvchining ichki dunyosi. Toshkent: Ma'naviyat.)

matematika fani mutaxassislari adabiyot fani o'qituvchisidan hayotga real boqishi, aniqlik va puxtalikka intilishi, his-tuyg'ularga berilmasligi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi haqida bir necha mutaxassislarning o'z qarashlari va fikr mulohazalari mavjud. Jumladan, Qozoqboy Yo'ldoshev o'zining asarlarida adabiyot o'qituvchisining muhimligini alohida ta'kidlaydi. U adabiyot o'qituvchisini faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarni ruhiy va axloqiy jihatdan tarbiyalovchi shaxs sifatida ko'radi. Uning fikricha, adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarga hissiyotlarni tushunish va insoniyatning barcha jabhalarini anglashda yordam beradi. U, shuningdek, adabiyot darslarini o'quvchilarning psixologik holatiga moslab olib borishga katta e'tibor qaratadi: „Adabiyot o'qituvchisi – bu qalblarni uyg'otuvchi, har bir so'zda insonni tushunishga intiluvchi murabbiydir. U faqat bilim beruvchi emas, balki ruhiy hamroh bo'lishi lozim”⁴ – deya ta'kidlaydi.

Adabiyot o'qituvchisi va ma'naviyat tarbiyasichi - Qunduzxon Husanova adabiyot o'qituvchisini insonning ma'naviy rivojlanishida asosiy shaxs sifatida ko'radi. Uning fikriga ko'ra, adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarga faqat badiiy bilimlarni emas, balki hayotiy qadriyatlarni ham o'rgatishi kerak. Adabiyotning maqsadi, Husanovanning fikriga ko'ra, insoniyatning eng yuqori fazilatlarini shakllantirish va axloqiy me'yorlarni tushuntirishdir. U, shuningdek, adabiyot o'qituvchisini o'quvchining ruhini his etuvchi, uning ichki dunyosiga kirishga intiluvchi pedagog deb hisoblaydi. „Adabiyot o'qituvchisi nafaqat badiiy bilimlar beruvchi, balki ma'naviy o'sishning boshqaruvchisi bo'lishi lozim. U o'quvchining qalbiga yurakdan yo'l topishi kerak”, – Qunduzxon Husanova.⁵

Asqar Zunnunov adabiyot o'qituvchisining ilmiy yondashuvini muhim hisoblaydi. Uning fikricha, adabiyot o'qituvchisi o'quvchiga faqat ma'lum asarlarni o'rganish emas,

Zunnunov A. Adabiyot darsi va ijodiylik. // Yangi O'zbekiston ta'limi jurnali. – 2020. – №4. – B. 38–43.

⁴ Yo'ldoshev, Q. (2016). Adabiy bilimlarni o'qitishning uslubiy asoslari. Toshkent: Fan.)

Yo'ldoshev Q. Adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. // Ta'lim va tarbiya jurnali. – 2021. – №3. – B. 22–28.

⁵ Zunnunov, A., & Yo'ldoshev, Q. (2023). Zamonaviy adabiyotshunoslik va metodika asoslari. Toshkent: TDPU.)

balki adabiyotning ilmiy asoslarini ham tushuntirishi kerak. Zunnunov adabiyot o'qituvchisini o'quvchilarga nafaqat badiiy, balki ilmiy tafakkurni rivojlantiruvchi shaxs sifatida ko'radi. U, shuningdek, adabiyot o'qituvchisi yondashuvlarining innovatsion bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi, bu esa zamonaviy pedagogikaning ehtiyojlaridan biridir. „Adabiyot o'qituvchisi – bu faqat so'zlarni o'rgatadigan emas, balki adabiyotning ilmiy va falsafiy jihatlarini o'quvchiga yetkazadigan mutaxassisdir“, – Asqar Zunnunov.⁶

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy adabiyot o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki insoniy fazilatlarni shakllantiruvchi, ma'naviy va estetik tarbiya beringuvchi shaxs sifatida tan olinadi. U o'quvchilarga ijodiy yondashuv va ilminga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi. Qozoqboy Yo'ldoshev, Qumduzxon Husanova va Asqar Zunnunovning fikrlari adabiyot o'qituvchisining nafaqat ta'lim, balki tarbiya sohasidagi muqaddas rolini yanada ravshanlashtiradi. Adabiyot o'qituvchisi, xususan, yosh avlodning axloqiy, estetik va ruhiy tarbiyasini shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. U o'quvchilarga badiiy tafakkur, ilmiy mantiq va ma'naviyatni o'zaro uyg'unlashtirib, ularni yangi davrning faol fuqarosi sifatida shakllantiradi. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki ruhshunos, pedagog, estetik tarbiyachi sifatida ham yuksak ma'naviy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. U orqali o'quvchi hayotni teran anglaydi, so'zga, fikrga va insoniylikka hurmat bilan qaraydi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Husanova Q. Adabiyot o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Husanova Q. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi: muammo va yechimlar. – "Pedagogik ta'lim" jurnali, 2021, №2. – B. 45–51.
3. Husanova Q. Innovatsion ta'limda adabiyot fanining o'rni. – Toshkent: Fan, 2022.
4. Zunnunov A. O'qituvchining ichki dunyosi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.

⁶ Zunnunov A., Yo'ldoshev Q. Zamonaviy adabiyotshunoslik va metodika asoslari. – Toshkent: TDPU, 2023

5. Zunnunov A. Zamonaviy pedagogik madaniyat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
6. Zunnunov A. Adabiyot darsi va ijodiylik. – "Yangi O'zbekiston ta'limi" jurnali, 2020, №4. – B. 38–43.
7. Yo'ldoshev Q. Adabiy bilimlarni o'qitishning uslubiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2016.
8. Yo'ldoshev Q. Adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. – "Ta'lim va tarbiya" jurnali, 2021, №3. – B. 22–28.